

**Buxoro davlat universiteti**  
**o'quv-metodik kengash 10-sonli**  
**yig'ilishining bayonnomasidan**

**K O' C H I R M A**

**27.05.2022**

**Buxoro shahri**

**K U N T A R T I B I:**

**1. Turli masalalar.**

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti B.G'. Qilichevning 5120101- Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishlari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan kurs ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" deb nomlangan o'quv – metodik qo'llanma tavsiya etish.

**E S H I T I L D I:**

**M.Y. Farmanova (kengash kotibasi)** - O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti B.G'. Qilichevning 5120101- Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishlari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan kurs ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" deb nomlangan o'quv – metodik qo'llanma nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu o'quv – metodik qo'llanmaga: NavDPI dotsenti filologiya fanlari nomzodi B.P. Zaripov va filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.R. Axmedovlar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. O'quv–metodik qo'llanma muhokamasi haqidagi Filologiya fakulteti (2022-yil 5-may) va O'zbek tilshunosligi kafedrasida (2022-yil 5-may) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

**Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti B.G'. Qilichevning 5120101- Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishlari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan kurs ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" deb nomlangan o'quv – metodik qo'llanma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi



**R.G'. Jumayev**

**M.Y. Farmanova**

**Bayramali Kilichev**

**«HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI»**

**fanidan**

**KURS ISHI BO‘YICHA USLUBIY  
KO‘RSATMALAR**

**Bayramali Kilichev**

**«HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI»**

**fanidan**

**KURS ISHI BO‘YICHA USLUBIY  
KO‘RSATMALAR**

**o‘quv-metodik qo‘llanma**

**Buxoro – 2022**

**Mazkur qo'llanma BuxDU O'quv-metodik kengashining qarori  
bilan nashrga tavsiya etilgan.**

**Mas'ul muharrir:**

*T.H. Asadov*

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

*A.R. Axmedov,*

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

*B.P. Zaripov,*

NavDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

## KIRISH

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda qayd etilganidek, Respublikamiz hukumati ham jismoniy, ham aqliy mehnatga qobiliyatli, xalq xo'jaligida, ijtimoiy va davlat hayotining turli sohalarida, fan va madaniyat jabhalarida namunali faoliyat ko'rsatishga qodir, ongli, bilimdon kishilarni tarbiyalash va tayyorlash yo'lini izchil o'tkazmoqda. Mamlakatimizning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, turmushimizning barcha sohalarida tub o'zgartirishlarga keng yo'l ochib berish davrida talabalarga eng zamonaviy ilmlarni o'rgatish va amaliy jihatdan yaxshi tayyorlash, ularning ilmiy ishga, ijodkorlikka layoqatini namoyon qilish va o'stirish oliy o'quv yurtlarining eng muhim vazifalaridan biridir. Binobarin, hukumatimizning qator qarorlari tomonidan qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish uchun talabalarni auditoriya mashg'ulotlari bilan band qilishni kamaytirish, o'qituvchilar tomonidan metodik yordam va nazoratni ta'minlab, mustaqil ishni tashkil etishni takomillashtirish kerakligi alohida ta'kidlangan. Bu vazifani amalga oshirish oliy o'quv yurtlari kafedralari oldiga o'quv jarayonini amaliyot bilan yaqinlashtirish, talabalarni mustaqil faoliyatga o'rgatish masalalariga aloqador bo'lgan zarur metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Mana shu mulohazalar asosida «Hozirgi o'zbek adabiy tili» predmeti bo'yicha kurs ishlarining mavzulari, ularga tavsiya qilingan ilmiy-nazariy adabiyotni hozirgi o'zbek tilshunosligi fani darajasiga moslashtirib qayta ko'rib chiqish, kurs ishlariga hozirgi talablar nuqtai nazaridan yondoshish natijasida ushbu metodik ko'rsatma yuzaga keldi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» predmeti bo'yicha kurs ishlari yozishning ilmiy-metodik, amaliy ahamiyati katta. Filologiya fakultetlari talabalarining bu fan bo'yicha yozadigin kurs ishlari, eng avvalo, talabalarda ma'ruzalardan olgan nazariy bilimlarini amalda tadbiq etish malakalarini tarbiyalaydi. Kurs ishlari, shu bilan birga, talabalarining shu borada layoqatlarini sinashning birlamchi vositasi ham bo'lib sinaladi.

## **KURS ISHLARINI YOZISHGA DOIR USLUBIY TAVSIYALAR**

Kurs ishi talabaning dastlabki ilmiy izlanishidir. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» predmetidan kurs ishi yozishda talabaga tavsiya qilinayotgan mavzulardan birini tanlab olib, mavzuga oid mavjud ilmiy-nazariy adabiyotni puxta o‘rganish, berilgan matnlardan (badiiy asar, jurnal yoki gazeta) shu mavzuga doir misollarni (faktik materialni) yetarli miqdorda to‘plash, mavzu talab qilgan yo‘nalishda misollarni tahlil qilib, xulosalar chiqarish vazifa etib qo‘yiladi. Albatta, talabadan mavzu bo‘yicha shu kungacha ma’lum ilmiy-nazariy fikrlardan tashqari biror yangi gap aytish talab qilinmaydi. Kurs ishi oldiga:

- 1) mavjud fikrlarni atroflicha o‘rganib, ularni talqin qila olish;
- 2) berilgan manbalardan tahlil uchun mavzuga doir misollarni izlab topish;
- 3) ularni mavzuni yoritish maqsadida to‘g‘ri tahlil qilishi;
- 4) o‘z kuzatishlarini mantiqan izchillikda ravon bayon etishi;
- 5) tegishli xulosalar chiqarish kabi talablar qo‘yilgan.

Kurs ishi ustida ishlash jarayoni quyidagi bosqichlarni nazarda tutadi:

1. *Mavzu tanlash.*
2. *Tanlagan mavzu yuzasidan lingvistik adabiyotlarni o‘rganish.*
3. *Adabiyotlarni konspektlashtirish.*
4. *Ko‘rsatilgan badiiy adabiyot, kundalik matbuot sahifalaridan mavzu bo‘yicha misollar to‘plash.*
5. *To‘plangan materialni sistemaga solish.*
6. *Kurs ishining rejasini tuzish.*
7. *Yig‘ilgan materialni shu reja asosida tahlil qilish.*
8. *Kurs ishini yozish.*
9. *Kurs ishini yakunlash.*
10. *Kurs ishini oqqa ko‘chirish, muqovalash hamda himoyaga tayyorlash.*

### **Mavzu tanlash.**

Kurs ishini yozish mavzuni tanlashdan boshlanadi. Mazkur ko‘rsatmaning keyingi qismida «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» predmetining bo‘limlari bo‘yicha kurs ishlari yozish uchun muvofiq deb topilgan mavzular ko‘rsatilgan. Talaba mana shu mavzular ichidan birini – o‘zi qiziqqan, o‘ziga ko‘proq tanish mavzuni ixtiyoriy ravishda tanlab oladi. Albatta, bir guruh talabalardan ikki yoki uch

kishining bir mavzuni tanlashlari kurs ishlaridagi bir xillik keltirib chiqarishi mumkinligini nazarda tutib, yaxshisi, talabalarning har qaysisi alohida mavzu ustida ishlagani ma'qul. Ba'zan shunday bo'ladiki, talaba mavzulardan birini tanlashda ikkilanishi yoki mavzuni, u orkali kurs ishida qo'yiladigan maqsadni tushunib etmasligi mumkin. Shunday paytlarda talabalarning mavzularni belgilashlarini kuzatayotgan o'qituvchidan u yoki bu mavzu yuzasidan olingan izoh, maslahat ularga yaxshi yordam bo'ladi. O'qituvchi talabalarni mavzularning xarakteri, ulardan ko'zda tutilgan maqsad bilan tanishtiradi. O'qituvchi kurs ishi yozish uchun dastlabki metodik maslahatlar beradi. Shuningdek, u ko'rsatmada ko'rsatilgan adabiyotlarga qo'shimcha manbalarni tavsiya etishi ham mumkin.

### **Kurs ishiga ilmiy rahbarlik qilish.**

Kurs ishining mavzusi va ilmiy rahbari universitet rektorining buyrug'i asosida tasdiqlangandan so'ng, talaba mavzuga tegishli adabiyotlarni o'rgangan holda ilmiy rahbar bilan birgalikda ishning rejasini ishlab chiqadi. Mazkur jarayon talabaga ilmiy rahbar tomonidan beriladigan kurs ishi topshirig'ida o'z aksini topadi.

Talaba ilmiy rahbar bilan belgilangan kunlar va soatlarda muntazam ravishda uchrashib, kurs ishini bajarilishini muhokama etib borishi hamda u bo'yicha maslahatlar olishi kerak.

Ilmiy rahbarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs ishi bo'yicha ilmiy va uslubiy yordam berish;
- ish mavzusi bo'yicha muntazam ravishda suhbatlar o'tkazish va maslahatlar berib turish;
- ishni bajarish uchun zurrur bo'lgan adabiyotlar va ma'lumotlardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish;
- ishning kamchiliklarini ko'rsatish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berib borish;
- bajarilgan ishni baholash;
- ishni o'z taqrizi orqali himoyaga taqdim etishga tavsiya berish;
- talabani kurs ishi himoyasiga axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda taqdimot qilishga tayyorlash.

Ishning ilmiy rahbari uning sifati hamda mazkur uslubiy ko'rsatma talablariga qat'iy rioya qilingan holda bajarilishiga mas'ul hisoblanadi.

### **Ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganish.**

Talabalarga ko'proq qulay bo'lishini ko'zda tutib, kurs ishlar uchun tavsiya qilingan adabiyotlar qismlarga ajratib berildi: har bir

bo'lim uchun umumiy bo'lgan asosiy adabiyotlar (darsliklar, qo'llanmalar, monografik tadqiqotlar...) va har bir mavzu uchun xususiy adabiyotlar (maxsus ilmiy ishlar, ilmiy to'plam va jurnallarda e'lon qilingan maqolalar, taqrizlar).

Biroq talaba o'z mavzusi bo'yicha ko'rsatilgan adabiyotlar bilangina cheklanmay, shu masalaga aloqador ilmiy fikrlarni mumkin qadar ko'proq o'rgansa, maqsadga muvofiq bo'ladi (kundalik matbuot materiallari, yangi nashr qilinayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari nazarda tutiladi). Bu talabani mavzuni eski fikrlar doirasida, sayoz yoritishdan saqlaydi. Eng muhimi, talabani bilim doirasi qancha keng bo'lsa, u mustaqil fikrlashga shuncha o'rgana boradi, unda fan sirlarini chuqurroq o'rganishga bo'lgan intilish kuchaya boradi.

Kurs ishini yozishda mavjud ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan qay ko'lamda tanishish, ularni qanday o'rganish alohida ahamiyatga ega. Kurs ishining yozilish saviyasi shu bosqichda talabani mas'uliyat bilan mehnat qilishga, izlanishi, mavzu yuzasidan bildirilgan fikrlarni idrok qilishga bog'liq. Ayrim hollarda talabalarning kurs ishlarida ilmiy adabiyot bilan tanishish, uni o'rganishga yuzaki qaraganliklari, asosan darsliklargagina murojaat qilganliklariga duch kelamiz. Xolbuki, ilm-fan hamma vaqt taraqqiyotda, rivojlanishda bo'lib, bu ko'proq xususiy adabiyotda aks etadi. Ayniqsa, monografik tadqiqotlar, muammoli maqolalar ijodiy fikrlashga chorlaydi. Adabiyotlar bilan keng qo'lamda tanishish, ularni sinchkovlik bilan o'rganish tanlangan mavzu bo'yicha mavjud fikrlarning orasida munozaratalab, qiziqishga loyiq kuzatishlar borligini namoyon qiladi. Bularni faktik materialda mustaqil tahlil qilib, o'z xulosalarini chiqarishga, qisqasi, ilmiy tafakkurga undaydi.

Ilmiy-nazariy adabiyotni o'rganishni darsliklardan, umumiy xarakterdagi boshqa manbalardan boshlash ma'qul. Xususiy adabiyotlar esa umumiy adabiyotlardan olgan bilimni to'ldirish, aniqliklar kiritishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlarni konspektlashtirish.**

Ilmiy-nazariy adabiyot bilan tanishish paytida talaba ularni faqat ko'zdan kechirib chiqmay, kerakli joylarni belgilab, konspektlashtirishi, sitata uchun foydalanish mumkin bo'lgan joylarni alohida ajratib olishi kerak bo'ladi.

**Konspektlashtirish oddiy ko'chirib olish emas.** Talaba konspektlashtirishda mavzuning shu kitob yoki maqolada qanday yoritilishida aniq baho berishi, o'zining mulohazalarini bildirishi,



munozarali o‘rinlarni belgilashi, lozim hollarda to‘ldirishi kerak. Konspektlashtirish ishning kirish va asosiy bo‘limlarini yozishda asqotadi. Ishda foydalanilgan ilmiy-nazariy adabiyotlarning obzori, masalaning ularda quyilishi kirish bo‘limida, munozarali fikrlar esa asosiy bo‘limni yozishda, faktik material tahlilida bayon qilinadi.

Konspektni quyidagicha olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz:

- sahifaning yuqorisida muallifning ism-familiyasi, kitob yoki maqolaning nomi, nashr qilingan o‘rni va vaqti (maqola e‘lon qilingan manba haqida ham ma‘lumot) ni ko‘rsatib, keyin sahifa ikki qismga bo‘linadi.

- chap tomonda konspektlashtirilayotgan ishning bet va paragraflari ko‘rsatilib borgan holda diqqatga sazovor, kurs ishi uchun muhim o‘rinlari aynan, so‘zma-so‘z ko‘chiriladi.

- o‘ng tomonda talabaning shu fikr yuzasidan mulohazalari berib boriladi, Ayni paytda ular boshqa manbalarga solishtiriladi. Chunki aynan bir hodisa, unga xos tushunchalar adabiyotlarga boshqa-boshqa terminlar bilan nomlanganini uchratish mumkin. Masalan, «O‘zbek adabiy tilida neologizmlar» mavzusida kurs ishi yozganda mavjud adabiyotlardan ikkitasiga murojaat qilib, bu hodisaning atalishi va ta‘riflanishini qiyoslaylik:

Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1 qism. Toshkent: O‘qituvchi. 1980, 127-b.

*Tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik belgisi (bo‘yog‘i)da berilgani sezilib turadigan so‘zlar yangi leksik qatlamni tashkil etadi. Bunday so‘zlar neologizmlar deb ham yuritiladi. «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati» berilganidek, neologizm ya‘ni yangi so‘z degani. Yangi narsa, tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug‘aviy birlikka aylanib ketmagan so‘z yoki ibora.*

O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan, 1981, 152-155-b.:

*O‘zbek tilida ma‘lum bir davrda paydo bo‘lgan yangi lug‘aviy birliklar bu til leksikasining yangi so‘zlar qatlamini tashkil qiladi. Neologizm paydo bo‘lish davriga ko‘ra yangi yoki eng yangi so‘z bo‘lib, unda yangilik ottenkasi yaqqol sezilib turadi.*

Yangi so‘zlar qatlamining doirasi noaniq: tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar nazarda tutiladimi yoki sobiq sho‘ro davrida paydo bo‘lgan so‘zlar nazarda tutiladimi? Yoki ikkala manbada ham frazeologik neologizmga misol yo‘q.

Bunday konspekt ikki tomonlama maqsadga:

1) nazariy adabiyotlardagi turli qarashlarni bir sistemaga solish, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ajratib olish uchun;

2) lozim bo'lgan hollarda sitata sifatida foydalanish uchun xizmat qiladi.

### **Faktik material to'plash.**

Kurs ishi uchun tavsiya qilinayotgan mavzularga faktik material to'plash uchun badiiy adabiyot ham tavsiya qilinadi. Talaba kurs ishi yozishga tayyorgarlik ko'rish paytida mana shu badiiy asarlardan mavzu bo'yicha tahlil uchun faktik material yig'adi. Masalan, shunday mavzu bor: «O'zbek tilining lug'at tarkibidagi o'zlashgan qatlam va uning boyish yo'llari». O'qituvchi bilan kelishgan holda talaba bu mavzuni yoritish uchun faktik material (asos) sifatida taniqli yozuvchi A.Muxtorning «Chinor» romanini sinchiklab o'qib chiqib, undagi o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni belgilaydi va keyin uni kartochkalarga ko'chiradi. Har bir misol (jumla) bittadan kartochkaga ko'chirilishi, bunda shu asarning nomi va sahifa nomeri ko'rsatilishi lozim. Masalan: U rayonga borib, mashinani chaqirdida, to'g'ri oblastga qarab yo'l oldi. («Chinor», 105-b.).

Kartochkada kerakli so'zning tagiga chiziladi, misolning qaysi betdan olinganini kurs ishi yozish paytida qo'l keladi.

Faktik material qancha ko'p yig'ilsa, shuncha yaxshi. Faktik materialning boyligi ish davomida misollar orasidan eng mazmunli, eng muvofiqlarini tanlab olish imkonini berish bilan birga, tahlilning har tomonlama puxta bo'lishini ta'minlaydi. Aksincha, tahlil uchun to'plangan misollarning kamligi talabaga nazariy adabiyotda bayon qilingan fikrlarni amalga keng tadbiiq qila olishga yo'l bermaydi, bu esa sayoz, ba'zan noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Natijada kurs ishining saviyasiga jiddiy putur etadi.

Publitsistik adabiyotdan, gazeta yoki jurnallardan olingan misollarning ham har biri yuqoridagidek alohida kartochkaga yoziladi. Bunda ham har bir kartochkada shu misolning qaysi manbadan olingani aniq ko'rsatilishi, gazeta va jurnal materiallarida esa muallif, materialning (hikoya, ocherk yoki maqolaning) nomidan tashqari, gazeta yoki jurnalning yili, oyi va sanasi ko'rsatilishi ma'qul.

### **To'plangan materialni sistemalashtirish.**

Mavzu uchun ko'rsatilgan ilmiy-nazariy adabiyot bilan tanishib chiqilgach va shu mavzuga doir misollar yetarli miqdorda yig'ilgach, kurs ishi uchun material to'plash ishini tugallangan, deb hisoblash va uni sistemalashtirishga o'tish mumkin. To'plangan materialni

xarakteriga qarab ikkiga ajratiladi; har qaysisi o'z doirasida sistemaga solinadi. Materialni sistemaga solishdan maqsad uni tahlilga tayyorlashdir.

1. Ilmiy-nazariy adabiyotdan olingan konspekt, sitata materiallari alohida ajratiladi, konspektlarni esa xronologik tartibda (ya'ni shu mavzuga doir darslik, ilmiy maqolalar e'lon qilingan vaqt tartibiga ko'ra) joylashtiriladi.

2. Badiiy yoki publitsistik adabiyotlardan, gazeta yoki jurnallardan yig'ilgan faktik material esa olingan manbasiga qarab ajratiladi. Keyin har birining ichida misollar mavzuning qaysi tomonini ochishga mo'ljallanishiga ko'ra guruhlanadi. Masalan, «So'zlararo ma'noviy munosabatlar» mavzusidagi kurs ishi uchun yig'ilgan misollarni sistemalashtirganda, ularni ma'noviy munosabatning qaysi turiga oidligiga ko'ra sinonimga misollar, antonimga misollar va sh .k. guruhlash mumkin. Misollarni tahlilgacha mana shunday sistemalashtirishning foydasi shuki, talaba bu bosqichda kurs ishini yozish uchun, to'plangan material yetarlimi yoki yo'qligini yana bir marta ko'zdan kechirishi, yetishmovchi misollarni o'z vaqtida izlab topishi mumkin.

### **Kurs ishining rejasini tuzish.**

Kurs ishini yozish uchun zarur tayyorgarlik ishlari: tavsiya qilingan ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganish, ularni konspektlashtirish, faktik materialni to'plash va tartibga solish nihoyasiga etdi. Talaba endi kurs ishini yozish yo'nalishini belgilashi, ya'ni uning rejasini tuzishi kerak bo'ladi. Reja kurs ishiga tanlangan mavzuni atroflicha yoritib berishga xizmat qilishi, talaba e'tibor berishi lozim bo'lgan masalalarni qamrab olishi kerak bo'ladi. Shu sababli odatda kurs ishiga tuzilgan reja mavzuni talaba qay darajada tushunib yetganidan dalolat berib turadi.

Ayrim hollarda kurs ishining rejasi juda puxta, keng qamrovli bo'ladi-yu, ishning o'zi unga mutanosib bo'lmaydi, rejada tilga olingan masalalar matnda uch-to'rt og'iz gap bilan bayon qilinadi, xolos. Mukammal tuzilgan reja asosida puxta yozilgan, misollar bilan dalillangan, did bilan tayyorlangan kurs ishi talabaning yuqori saviyasidan, uning o'z vazifasiga mas'uliyatni his qilib yondashganidan dalolat beradi.

Kurs ishi talabaning oliy o'quv yurtidagi dastlabki ilmiy-ijodiy ishi bo'lib, hajmining kichikligi, xarakteri bilan diplom ishini yozishga o'rgatuvchi bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun diplom

ishidan farqli o'laroq kurs ishlari boblarga emas, bo'limlarga ajratiladi. Har qanday ilmiy yoki ijodiy ishda bo'lgani kabi talaba kurs ishida, avvalo, bir-biriga bog'liq uch mantiqiy bo'limni: kirish, asosiy va xulosa bo'limlarini, qaysi masalani kirishda, qaysi masalalarni esa asosiy bo'lim yoki xulosada bayon qilishni belgilab olishi juda muhim.

Ishning kirish bo'limida mavzuning dolzarbligi, uning tilshunoslikda o'rganilishi haqida gap boradi, shuning uchun kirish bo'limi rejada bir yoki ikki qism bilan beriladi. Bunda mavzuning murakkab yoki osonligi, adabiyotlarda o'rganilishi hisobga olinadi.

Asosiy bo'lim kurs ishining ahamiyat jihatidan ham, hajm jihatidan ham eng salmoqli qismi bo'lgani uchun bir necha mayda qismlarga bo'linadi. Ular rejada nuqtali va qavsli arab raqamlari bilan belgilanadi.

Xulosada avvalgi ikki bo'lim materialning yakuni aks etadi, talaba shu mavzu bo'yicha izlanishlarning natijasini qisqa va lo'nda bayon qiladi. Xulosa rejada ko'p hollarda bir qism bilan ko'rsatiladi.

Kurs ishi insho emas. Shuning uchun rejada kirish, asosiy va xulosa bo'limlarini atamay, I, II, III rim raqamlari bilan belgilash kifoya.

Kurs ishining xomaki rejasi ilgariroq, lingvistik adabiyot bilan tanishish davomida tuzish mumkin. Odatda shunga qarab misollar to'planadi. Misollar to'plash va yig'ilgan jami materialni sistemalashtirish davomida bu reja ancha o'zgarishi mumkin. Shuning uchun uzil-kesil oxirgi reja ishni bevosita yozishga kiritishdan oldin tuziladi (kurs ishlarining rejalaridan namunalar metodik ko'rsatmalardan so'ng beriladi).

### **Yig'ilgan materialni tahlil qilish.**

Kurs ishining aniq rejasi tuzilgach, endi eng muhim bosqichga – mana shu reja asosida to'plangan materialni tahlil qilishga o'tish mumkin. Bunda ham lingvistik adabiyot materiali alohida, faktik material alohida tahlil qilinadi. Tahlilni avval ilmiy-nazariy adabiyotdan boshlash kerak, chunki u ishning kirish qismini yozish va umuman, misollarni qanday tahlil qilish yo'lini belgilab beradi.

Ilmiy-nazariy adabiyot tahlilida talaba o'zining mavzusi bo'yicha mavjud fikrlarni avval darsliklar, keyin xususiy manbalar bo'yicha o'rganib chiqishi maqbul, chunki xususiy manbalar (maqollar, taqrizlar, lug'atlar...) darslikdagi fikrlarni to'ldiradi, izohlaydi, ba'zan zid keladi. Talaba o'zi uchun kerakli mana shu

fikrlarning hammasini qunt bilan, sinchiklab o'rganishi va kurs ishida mavzuni qanday yoritish yuzasidan o'zi uchun tegishli xulosalarga kelishi kerak. Ba'zan mavzu yuzasidan e'lon qilingan fikrlar, umuman olganda, bir-biriga mos keladi va bir-birini to'ldiradi. Bunday paytlarda talabani ish oson kechadi, albatta. Lekin shunday hollar ham bo'ladiki, o'zaro zid, boshqa-boshqa fikrlar ham bo'lishi mumkin. Bunday paytda talaba, albatta, avvalo darsliklarga asoslanishi, o'z qarashlarini to'ldirishi, izohlashi talab etiladi. E'tiroz tarzidagi fikrlarni kurs ishining kirish qismida, albatta, ko'rsatib o'tish, shuningdek, misollar tahlilida ham shu fikrning qay darajada o'zini oqlashini tekshirib ko'rish kerak.

Misollarning tahlili talabani ilmiy-nazariy adabiyotni o'rganib, shundan chiqargan xulosalariga asoslanadi. Talaba misollarni o'rganishda mumkin qadar diqqat bilan, sezgirlik bilan yondashish kerak. Chunki misollarning tahlili talabani bilim darajasini ham, shu bilimni amalda tadbiq eta olish qobiliyatini ham belgilaydi. Misollarning tahlili asosida kurs ishining asosiy qismi yoziladi. Shuning uchun misollar qancha chuqur o'rganilsa, mavzuning eng nozik tomonlari ham shunga qarab yoritiladi va kurs ishining asosiy qismi, demak, o'zi ham shuncha muvaffaqiyatli yozilgan bo'ladi.

To'plangan material yaxshilab o'rganilib, tahlil qilingach, kurs ishini yozishga kirishiladi.

### **Kurs ishini yozish.**

Endi yig'ilgan material puxta tahlil qilinib, qayta-qayta ko'zdan kechirilib, uning to'g'riligiga ishonch hosil qilingach, ishning navbatdagi qismiga – shularning hammasini qog'ozga tushirib, kurs ishini yozishga o'tish mumkin. Kurs ishini yozishda talaba oldiga qo'yiladigan eng muhim talab kurs ishining sistemali yozilishiga, fikrlarini izchillik bilan, ravon ifoda qilishga e'tibor berishdir. Chalkash, tuturiqsiz jumlar fikrni anglab olishni qiyinlashtiradi, hatto ba'zan talabani noto'g'ri, aksincha tushunishga ham olib kelishi mumkin.

Kirishda, ya'ni 1 bo'limda, ma'lumki, talaba mavzu bo'yicha o'rganib chiqilgan lingvistik adabiyotning obzorini berishi, shuningdek, unga qo'shimcha tarzda, mavzuni kengroq yoritish maqsadida, biron umumiyroq tomonini bayon etishi mumkin (bu haqida yuqoridagi «Ishning rejasini tuzish» qismida to'xtab o'tilgan edi). Adabiyotlarning obzorini ikki xil tartibda berish mumkin:

xronologik va problematik tarzda. Kurs ishi talabaning dastlabki ishi ekanligini nazarda tutib, hozircha adabiyotlar obzorini osonroq xronologik (davriy) tarzda berishni tavsiya qilamiz. Demak 1 bo‘limda talaba mavzu yuzasidan mavjud fikrlarini umumiy va xususiy adabiyotlar bo‘yicha ularning qachon e‘lon qilinganligiga qarab bayon qiladi, shulardan qaysi biriga o‘zining kurs ishida asoslanishini ko‘rsatadi.

2 bo‘limda tanlab olingan mavzu, unga bevosita taalluqli masalalar bayon qilinadi, yig‘ilgan misollardan shu fikrlarni isboti uchun foydalaniladi. Misollarning tahlili paytida tug‘ilgan fikrlar asosiy qism mundarijasini tashkil qiladi. Masalan, «O‘zbek tilida eskirgan so‘zlar, ularning leksik-semantik xususiyatlari (S.Ayniyning «Esdaliklar» asari bo‘yicha) mavzusi tanlandi. Demak, talaba S.Ayniyning «Esdaliklar» asarida qo‘llangan eskirgan so‘zlar yuzasidan to‘plagan misollarni sistemalashtirib, tahlil qilib berishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa 1 bo‘limda u mavjud ilmiy-nazariy adabiyotlardagi eskirgan so‘zlarning tasnifini qarab chiqishi, bu masala bo‘yicha adabiyotlar orasidagi farqni aniqlab, o‘zi uchun ma‘qul bo‘linishni belgilab olishi zarur. Mana shu tasnif bo‘yicha u asosiy bo‘limda eskirgan so‘zlarni tahlil qilib beradi.

Yig‘ilgan misollarning hammasini, albatta, asosiy bo‘limda aks ettirish shart emas. Misollar orasida eng mazmunli va eng chiroyllilarini tanlab olish kerak. Bir fikrning isboti uchun 4-5 misol yetarli.

Ko‘pchilik talabalarning «kurs ishida sitatalardan foydalanish mumkinmi?» degan savol qiziqtiradi. Kurs ishining 1 bo‘limida, shuningdek, 2-asosiy bo‘limida ham – sitatalardan o‘z o‘rnida foydalana bilish ijobiy natija beradi, ishning salmog‘ini oshiradi. Talaba o‘z fikrini boshqalarning fikrini keltirish yo‘li bilan tasdiqlamoqchi yoki, aksincha, boshqa mualliflarning fikriga e‘tiroz bildirmoqchi bo‘lgan hollarda sitatalardan foydalanadi. Sitatalarni aynan ko‘chirish yoki hammaga ma‘lum fikrlarni o‘z so‘zlari bilan o‘zlashtirma gap tariqasida ham berish mumkin. Biroq fikrning aynan saqlanishiga alohida diqqat qilish va uning qayerdan olinganligini havolada (snoskada) albatta ko‘rsatib o‘tish lozim. Masalan: I. Sitata aynan keltiriladi: «Bu maqolada taniqli dialektolog olim A.Ishayev shunday fikr bildiradi: «O‘zbek adabiy tilini mustasno qilganda, barcha turkiy tillarda metindek mustahkam tanglay singarmonizmi qonuni bor».

2. O‘zga fikr o‘zlashtirma gap tarzida beriladi: «Bu maqolada taniqli dialektolog olim A.Ishayevning ta’kidlashicha, o‘zbek adabiy tilidan boshqa hamma turkiy tillarda tanglay singarmonizmi yaqqol ko‘zga tashlanadi (Ishayev A. O‘zbek tilining oltoy tillari orasidagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. T.: 1986, 4-son, 48-b.).

Kirish va asosiy qismlar yozib bo‘lingach, xulosa yozishga o‘tiladi. Bunda talaba quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

1. Xulosada talaba kurs ishini yozish bo‘yicha olib borgan butun mehnatiga yakun yasaydi: lingvistik adabiyotlar bilan tanishgani, qaysi manbalarda qancha vaqt va qaysi xarakterdagi misollar haqida ma’lumot beradi.

2. To‘plangan materialning tahlilidan kelib chiqqan xulosalarni qisqa tarzda bayon qiladi. Masalan, bunda tanlangan mavzu o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilganmi-yo‘qmi, yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lsa, misollarning tahlili shu fikrlarni tasdiqlaydimi kabi savollarga talaba ilmiy javob berishga urinib ko‘rishi kerak.

Kurs ishi – talabaning dastlabki ilmiy ishi, shuning uchun kurs ishida talabadan mavzu bo‘yicha yangi fikr aytish va shu bilan o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida o‘zining kichik ulushini qo‘shish talab qilinmaydi. Kurs ishida talabaning mavzu bo‘yicha mavjud fikrlarni puxta o‘rganib, ularni va yig‘ilgan faktik materialni mustaqil tahlil qilishi hamda o‘z kuzatishlarini sistemali tarzda yoritib berishi maqsad qilib qo‘yiladi. Lekin ayrim hollarda, talabada misollarning tahlili davomida, xulosalarni yozish jarayonida o‘z fikr-mulohazalari tug‘ilsa, buni isbotlash uchun yetarli dalillari bo‘lsa, albatta, uni ishning asosiy va xulosa bo‘limlariga kiritish kerak.

### **Ishni yakunlash.**

Xulosadan keyin kurs ishida tanishib chiqilgan adabiyotlar ro‘yxati (bibliografiya) beriladi. Bibliografiya izchillik prinsipida guruhlanib, alifbo tartibida beriladi. Bibliografik ma’lumotlar quyidagi tarzda ko‘rsatiladi:

- a) muallifning familiyasi (to‘liq) va ismi (qisqartirilib);
- b) kitob nomi (yoki maqola sarlavhasi);
- d) kitobning nechanchi tomi, qismi, chiqarilish raqami, nechanchi nashr ekanligi, nashriyot nomi;
- e) nashr etilgan joyi, nashr etilgan yili;
- f) kitob (maqola)ning beti.

Bibliografik sarlavhalarni havola (snoska)da ko‘rsatishda ham asosan, shu tartibga rioya qilinadi. Lekin bunda bitta farq bor. Sahifa

ostidagi havolada muallif familiyasidan oldin uning ismi-sharifi yoziladi, oxirida esa sitata olingan sahifa nomeri ko'rsatiladi.

Bibliografiya ikki qismdan iborat bo'ladi: lingvistik adabiyot ro'yxati va misollar olingan manbalar ro'yxati.

Bibliografiyadan so'ng, agar mavzu talab qilgan va talaba tayyorlagan bo'lsa, ilova qilinadigan materiallar joylashtiriladi: jadvallar, sxemalar, lug'atlar...

Kurs ishining eng so'ngida mundarija beriladi.

**Kurs ishini oqqa ko'chirish, muqovalash va himoyaga tayyorlash.**

Endi kurs ishini tayyor qiyofaga keltirish kerak. Kurs ishini qo'lyozma tarzida ham, kompyuterdan chiqarilgan holda ham tayyorlash mumkin.

Kurs ishi kompyuterdan chiqarilganda 10 qog'ozdan, qo'lyozmada 20-25 qog'ozdan kam bo'lmasligi kerak, qog'ozning chap tomonidan opponent mulohazalari uchun 4-5 sm.li hoshiya qoldiriladi.

Kurs ishining titul varag'ida o'quv yurti (institut, universitet)ning to'liq nomi, kafedra nomi kurs ishi mavzusi, talabaning nomi, familiyasi, guruhi hamda kurs ishi rahbari va bajarilgan yili haqidagi ma'lumotlar qayd etiladi.

Shu ishlarning hammasi bajarilgach, kurs ishi chiroyli qilib muqovalanadi va himoyaga tayyor hisoblanib, o'qituvchiga topshiriladi.

**Kurs ishiga taqriz yozish va uni himoya qilish.**

Yozib tugallangan va ilmiy rahbar tomonidan ma'qullangan, muqovalangan kurs ishi belgilangan muddatda kafedraga topshiriladi hamda taqriz qilinadi.

Kurs ishi taqrizida ishning ilmiy darajasiga, amaliy tavsiyalarning asoslanganligiga va ularning ahamiyatiga baho berilishi, yo'l qo'yilgan mavjud kamchiliklar ko'rsatilishi hamda talaba mahorati baholanishi lozim.

Talaba kurs ishini himoya qilishga tayyorgarlik paytida bajarilgan mavzuning mazmun-mohiyati bo'yicha qisqacha ma'ruza matnini tayyorlashi hamda himoya taqdimoti uchun zarur bo'ladigan ko'rgazmali materiallarini tayyorlab qo'yishi, taqriz mazmuni bilan tanishib chiqishi va taqrizchi e'tirozlariga javob tayyorlagan bo'lishi kerak. Kurs ishi himoyasiga axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda taqdimot tayyorlash talab etiladi.



Kurs ishi himoyasi uch a'zodan iborat tarkibdagi komissiyaning ochiq majlisida himoya qilinadi. Talaba 10 daqiqagacha kurs ishining asosiy natijalarini, taklif va xulosalarni izohlab beradi. Berilgan savollarga javob beradi.

Komissiya kurs ishining himoya natijasi va ilmiy rahbarning taqrizini hisobga olgan holda uni 100 ballik tizim bo'yicha baholaydi.

### **Kurs ishining baholanish mezonlari.**

Kurs ishini baholashda uning quyidagi tomonlari hisobga olinadi:

1. Mavzuning talaba tomonidan o'rganilish darajasi.
2. Adabiyotlarda mavzu bo'yicha ilgari surilgan fikrlarning tahlili.
3. Kurs ishini yozishda faktik materialning to'planishi va tahlil qilinishi.
4. Kurs ishining savodli yozilishi, fikrlarning ifodasidagi ravonlik.
5. Kurs ishining kompozitsion to'g'ri tuzilishi, hajmi.

### **Kurs ishlari quyidagicha baholanadi:**

1. Mavzu atroflicha o'rganilgan, ilmiy-nazariy va faktik material puxta tahlil qilingan, talabaning ilmiy ishga layoqati yaqqol sezilib turgan, har tomonlama mukammal bajarilgan kurs ishlariga «a'lo» baho qo'yiladi (86-100%).

2. Mavzu to'liq o'rganilgan, faktik material jiddiy tahlil qilingan, faqat fikrlarning bayoni yoki kurs ishining tuzilishida ayrim xato yoki kamchiliklarga (2-3 ta) yo'l qo'yilgan kurs ishlariga «yaxshi» (4) baho qo'yiladi (71-85%).

3. Mavzu, asosan, yoritilgan, biroq misollarning tahlilida, kurs ishining tuzilishida yoki fikrlarning bayonida nuqsonlarga (4-6 ta) yo'l qo'yilgan kurs ishlariga «qoniqarli» (3) baho qo'yiladi (56-70%).

4. Mavzu yuzaki o'rganilgan va chalkash yoritilgan materialning tahlili talabga javob bermaydigan, shuningdek, savodsiz yozilgan kurs ishlariga «qoniqarsiz» (2) qo'yiladi (55%dan kam).

# **KURS ISHINING REJASINI TUZISH UCHUN NAMUNALAR**

## **1-mavzu:**

### **O‘zbek grafikasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

#### **Reja:**

##### **I. O‘zbek grafikasining tarixi:**

1. Isloh qilingan arab grafikasi asosida tuzilgan o‘zbek alfaviti.
2. Lotin grafikasiga o‘tish.
3. Rus grafikasini qabul qilish va buning sabablari.

##### **II. Rus grafik sistemasiga asoslangan o‘zbek alfaviti va uning tuzilish sistemasi:**

1. Tovush ko‘rsatuvchi shakllar va tovush ko‘rsatmovchi shakllar.
2. Fonetik prinsipdan chekinishlar.
3. Rus tiliga xos tovushlarning o‘zbek yozuvida berilishi.

##### **III. Hozirgi o‘zbek grafikasini takomillashtirish masalalari:**

1. Harflar yetishmovchiligini bartaraf qilish.
2. Alfavitga shakllarni joylashtirishni yaxshilash
3. X va h harflarini shakliy farqlash masalasi.

Xulosa.

## **2-mavzu:**

### **Leksema va uning tarkibiy qismlari**

#### **Reja:**

1. Leksema – mustaqil lug‘aviy birlik sifatida.
2. Leksema va uning o‘rganilishi masalasi.
3. Leksemaning tarkibiy qismlari tahlili:
  - a) leksemada semema;
  - b) leksemada nomema;
  - d) sememaning turlari
4. Leksema va so‘z muammosi.

Xulosa.

## **3- mavzu:**

### **Lug‘aviy dialektizmlar va badiiy asar tilida ulardan foydalanish**

#### **Reja:**

1. Lug‘at tarkibining ishlatilish doirasiga ko‘ra chegaralangan qatlami.
2. Dilektizmlar va ularning ko‘rinishlari.

3. Leksik dialektizmlar, ularning semantik-grammatik xususiyatlari.

4. Bir shevaga mansub va shevalararo dialektizmlar.

5. Lugʻaviy dialektizmlardan badiiy asar tilida foydalanish:

5.1. Muallif nutqida;

5.2. Personaj nutqida.

6. Lugʻaviy dialektizmlar – oʻzbek adabiy tili lugʻat tarkibini boyituvchi manbalardan biri.

#### **4-mavzu:**

### **Lugʻaviy maʼno guruhlari (meva nomlarini ifodalovchi leksemalar asosida)**

#### **Reja:**

I. Tilda lugʻaviy maʼno guruhlari muammosi.

1. Lugʻaviy maʼno guruhlarning oʻziga xos xususiyatlari.

2. Lugʻaviy maʼno guruhlari markaz va qurshov masalasi.

II. Oʻzbek tilida meva nomini ifodalovchi leksemalar tizimi.

III. Meva nomi leksemalaridagi leksemalarning tahlili.

IV. Meva nomi leksemalarining etimologik xususiyatlari.

Xulosa.

#### **5-mavzu:**

### **Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari**

#### **Reja:**

1. Soʻz maʼnosining oʻrganilish tarixidan.

2. Soʻz maʼnosining mustaqil va matnda ifodalanishi xususiyati.

3. Maʼno koʻchishi, maʼno koʻchishi usuli va koʻchma maʼnoning ifodalanishi.

4. Koʻchma maʼnoning ifodalanishi:

a) metafora;

b) metonimiya;

c) sinekdoxa;

d) vazifadoshlik;

e) kinoya.

Xulosa.

#### **6-mavzu:**

### **Asar tilida sinonimlar (Gʻ.Gʻulom sheʼrlari asosida)**

#### **Reja:**

1. Maʼnoviy munosabat va sinonimiya muammosi.

2. Sinonimning taʼrifi va turlari xususida.

3. Asar tilida sinonim soʻzlarning oʻrni.

4. Sinonimlarning leksik-semantik jihatlari.
  5. Asar tilida qoʻllanilgan sinonimlarning stilistik xususiyatlari.
- Xulosa.

#### **7-mavzu:**

### **Frazeologizm va uning turlari**

#### **Reja:**

1. Frazema – tilning mustaqil birligi.
  2. Frazema va uning turlari.
  3. Frazemaning qoʻshma soʻz va soʻz birikmasi bilan munosabati.
  4. Frazema va polisemiya muammosi.
  5. Frazema va nutq madaniyati masalasi.
- Xulosa.

#### **8-mavzu:**

### **Oʻzbek lugʻatchiligi va lugʻat turlari**

#### **Reja:**

1. Tilshunoslikda lugʻat va uning oʻrni.
  2. Oʻzbek lugʻatchiligi tarixidan.
  3. Lugʻatlarning turlari:
    - a) ensiklopedik lugʻat;
    - b) lingvistik lugʻat.
  4. Lugʻat tuzish va unga qoʻyiladigan talablar.
  5. Oʻzbek lugʻatchiligi muammolari.
- Xulosa.

**KURS ISHLARI UCHUN**  
**MAVZU YO‘NALISHI VA ADABIYOTLAR**

**I. FONETIKA. FONOLOGIYA. GRAFIKA.**  
**ORFOGRAFIYA. ORFOEPIYA.**

1. Абузалова М., Йўлдошева Д. Тилшуносликка кириш. Т., 2005.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л., 1960.
2. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 4-нашри. Тошкент, «Ўқитувчи», 1978.
3. Нейматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. Т., 1995.
4. Нейматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. 1993.
5. Раҳматуллаев Ш. Орфография қоидалари – саводхонлигимиз асоси. Тошкент, 1980.
6. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. 2-е изд. Ташкент, 1965.
7. Решетов В.В. Узбекский язык. Ч.1. Введение. Фонетика. Ташкент, 1959.
8. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, «Ўқитувчи» 1980.
9. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. Тошкент, 1956.
10. Ҳозирги замон ўзбек тили. Фахри Камол таҳрири остида. Тошкент, «Фан», 1957.
11. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. 1-том. Тошкент, «Фан», 1966.
12. Ҳожиёв А. П. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент, «Ўқитувчи», 1977.

**1. Fonetika va transkripsiya muammosi**

1. Абузалова М., Йўлдошева Д. Тилшуносликка кириш. Т., 2005.
2. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л., 1960.

3. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 4-нашри. Тошкент, «Ўқитувчи», 1978.
4. Нейматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. Т., 1995.
5. Нейматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. 1993.
6. Нейматов Ҳ. Тарихий фонетика. Тошкент, 1992.
7. Решетов В.В. Узбекский язык. Ч.1. Введение. Фонетика. Ташкент, 1959.
8. Ризаев С. Бўгин структурасини ўрганиш тажрибасидан. Тошкент, 1975.
9. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, «Ўқитувчи» 1980.
10. Ҳозирги замон ўзбек тили. Фахри Камол таҳрири остида. Тошкент, «Фан», 1957.

## **2. Tovush o'zgarishlari**

1. Абдуллаев А. Маъно кучайтиришнинг фонетик усули // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, 2-сон.
2. Абузалова М., Йўлдошева Д. Тилшуносликка кириш. Т., 2005.
3. Мамедов А. Ассимиляция в свете взаимоотношения фонетики и грамматик. ("СТ", Баку, 1972. №4.
4. Махмудов А. Тилда сингармонизм. Урғу ва товуш системасининг ўро муносабати //Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 4-сон.
5. Ғуломов А., Тихонов А. Н., Ўзбек тили морфем луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

## **3. Bo'g'in va uning tiplari**

1. Махмудов А. Ўзбек адабий тилида сўзларнинг фонетик структураси //Ўзбек тили ва адабиёти, 1984, 2-сон.
2. Ризаев С. Бўгин структурасини ўрганиш тажрибасидан. Тошкент, «Фан», 1975.
3. Ризаев С. Бўгин структурасини статистик ўрганиш //Ўзбек тили ва адабиёти, 1977, 3-сон.
4. Ризкулов Е., Абдуллаев К. Бўгин структурасини ўрганиш тажрибасидан //Ўзбек тили ва адабиёти, 1976, 2-сон.

#### **4. Hozirgi o‘zbek grafikasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

1. Иброҳимов С. Ўзбек миллий ёзувининг ривожланиши //Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 2-сон.
